


330
D.J.-45



R. F. Dumanova

PROGOZLASHTIRISH VA STRATEGIK REJALASHTIRISH

330
Dj-45

Djumanova R.F.

PROGNOZLASHTIRISH VA STRATEGIK REJALASHTIRISH

O'quv qo'llanma



"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2025

UO'K: 330(575.1)

KBK: 65.5(5O'z)

T 15

330.101.

Djumanova R.F.

Prognozlashtirish va strategik rejalshtirish [Matn]: O'quv qo'llanma /
R.F. Djumanova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 120 b.

Taqrizchilar:

Umarov A.T., O'zbekiston milliy universiteti i.f.d. Dots.

Sagidullaev X., Toshkent kimyo xalqaro universiteti f- m.f.n. dots.

O'quv qo'llanma davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan.


Qo'llanmada o'quv rejada belgilangan, shuningdek, tasdiqlangan dasturga muvofiq o'quv materialini egallash bo'yicha metodik ko'rsatmalarga ko'ra talaba sinovga tayyorgarlik ko'rishi uchun o'rganishi kerak bo'lgan fan bo'yicha asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu qo'llanma ta'limning barcha shakldagi talabalar uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-06-373-2

© Djumanova R.F., 2025.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.



Mundarija.

Kirish	5
I Bob. Prognozlashtirish va strategik rejalashtirishning metodik asoslari	
1.1. Prognozlashtirish va strategik rejalashtirishning vazifalari va tamoyillari.	7
II. Bob. Prognozlash usullari	
2.1. Prognozlash usullari tavsifi	16
2.2. Vaqqli qatorlar tahlil.	24
2.3. Vaqqli qatorlar tahlilining o'rtacha harakat (siljish) usuli	26
2.4. EkspONENTSIAL tekislash usuli	30
2.5. Trendni proetsiyalash (chiziqli) metodi.	32
III Bob. Nazorat ishlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma	35
3.1 Bilimni mustahkamlash uchun masalalar	41
3.2. Nazorat ishlari variantlari.	48
3.3. Regression ekonometrik modellar asosida hisoblanadigan masalalar.	57
IV mavzu. Solou modeli	
4.1. Solou modelini ishlab chiqish metodikasi.	63
V- mavzu. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash metodlari	65
5.1. Makroiqtisodiy prognozlashning vaazifalari.	65
5.2. YAMM va YAIMni prognozlash metodlari.	70
VI- mavzu. Ijtimoiy- iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash.	75
6.1. Ijtimoiy- iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashning ahamiyati.	75
VII Bob. Demografik prognozlashning usullari	82
7.1. Demografiyada ishlatiladigan usullarning umumiyl tavsifi.	82
7.2. Demografiyada ekstrapolyatsiya metodi.	84
7.3. Yosh siljitis metodi.	89
Bilimni mustahkamlash uchun masalalar.	92
IIX Bob Talab va taklifni prognozlash.	98
8.1. Talab va taklifni prognozlashning ahamiyati.	98
IX Bob. Inflyatsiyani prognozlash	101
9.1. Inflyatsiyani prognozlash va inflyatsiya jarayonlarini boshqarish	101

X Investitsiyalarni modellashtirish va prognozlash.	109
10.1. Investitsiyalarni moliyalashtirishda ekonometrik modellashtirish usullari.	109
10.2. Investitsiyalarni prognozlash.	113
Adabiyotlar	118

Kirish

Prognozlashtirish va strategik rejalashtirish – bu o'tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendentsiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlashdan iborat. Prognozlash mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu fan boshqaruv yechimlarni tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi, keljak maqsadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo'llarini aniqlaydi.

«Prognozlash» - iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo'lib, o'ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi: birinchidan, prognozlar direktiv xarakteriga ega emas, ularning miqdor baholari asosan ehtimollik xarakteriga ega, ular ko'prok darajada sodir bo'lgan rivojlanish muammolarini aniqlashga va ularni yechish yo'llarini izlashga qaratilgan.

«Prognozlashtirish va strategik rejalashtirish» fanining predmeti - prognozlashtirish ob'ektining rivojlanish qonuniyatini o'tmishi asosida o'rganib, butun bir iqtisodiy majmua va uning tarkibiy qismlari ob'ektiv asoslangan rivojlanish holatlari va tendentsiyalarining vaqt va fazodagi miqdor va sifat darajalarini aniqlashdir.

«Prognozlashtirish va strategik rejalashtirish» fanining asosiy vazifasi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo'llarini real baholash bu rivojlanishning maqbul boshqaruv yechimlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muammolarni, yangi jarayon va holatlarni o'rganadi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ehtimoliy yo'nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik bosh yo'nalishlarni asoslaydi.

“Prognozlashtirish va strategik rejalashtirish ” asoslarini bilish mutaxassisiga ro'y berayotgan voqealarni o'rganishga abstraktsiyalashgan holda va asosli ravishda yondashish, prognozlash jarayonida yuzaga keladigan holatlarni

tushuntirish va ahamiyatini baholash imkonini beradi.

“Prognozlashtirish va strategik rejalashtirish” fanining maqsadi bo’lib, ijtimoiy-iktisodiy jarayonlarni o’rganish, tahlil qilish, tartibga solish, boshqarish, rejalashtirish va prognozlash asosida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish bo’yicha xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqishga o’rgatishdan iborat.

O’quv qo’llanmaning maqsadi – milliy iqtisodiyotning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning butun tizimini qurishga qaratilgan metodologik va metodik yo’llarini o’rganish.

Fan vazifalari quyidagilardan iborat:

Talabalarda prognozlash va strategik rejalashtirish tizimi haqidagi tasavvurlarni berish;

Talabalarni turli iqtisodiy holatlar va jarayonlarni prognozini ishlab chiqish yo’llari, usulublari va aniq usullarini qo’llashni o’rgatish;

Talabalarni amaliy masalalarni yechish uchun zarur ilmiy vositalar bilan qurollantirish.

Ushbu qo’llanma X bobni o’z ichiga oladi. Har bir mavzuda asosiy savollar va ular tahlilining mantiqiga, yechilishiga alohida e’tibor beriladi. Berilgan mavzular ohrilda talabalar mustaqil yechishlari uchun masalalar va topshiriqlar berilgan. O’quv qo’llanmada talaba o’zini sinash uchun Prognozlashtirish va strategik rejalashtirishga tegishli testlar berilgan bo’lib, qo’llanma yakunida fan doirasida ishlatiladigan tayanch iboralarning qisqacha mazmuni keltirilgan.

O’quv qo’llanma oliy o’quv yurtlarining iqtisodiyot mutaxassisliklariga, magistratura va bakalavr bosqichidagi talabalarga strategik rejalashtirish va prognozlash savollari bilan shug’ullanadigan amaliyotchi, stajyor - tadqiqotchi va magistrlar uchun amaliy o’quv qo’llanma sifatida foydali bo’ladi.

Mazkur o’quv qo’llanma universitet tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida yozilgan bo’lib, u darslik, o’quv va o’quv-uslubiy qo’llanmalar sohasidagi yetishmovchilikni bir qadar to’ldiradi degan, umiddamiz.

I Bob. Prognozlashtirish va strategik rejalashtirishning metodik asoslari

1.1. Prognozlashtirish va strategik rejalashtirishning vazifalari va tamoyillari.

Prognozlashtirish va strategic rejalashtirish – mamlakat (korxona) ijtimoiy

- iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish va prognozlashtirish, maqsadlarni belgilash jarayonlarni o'z ichiga oluvchi davlatning ustuvor maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan boshqaruv mehanizmi. **Prognoz** yunoncha so'zidan olingan bo'lib, oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish ma'nolarni anglatib, kelajakni ilmiy usullar orqali istiqbollash tushuniladi.

Prognoz - bu istiqboldagi voqeа, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya'ni kelajakda ob'ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va alternativ yo'llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalardir.

Makroiqtisodiy rivojlanishda mamlakatlar sistematik ishlarni quyidagi sohalarda yo'lga qo'yiladi:

1. Milliy maqsadlarga erishish monitoringi
2. Milliy loyihalar doirasidagi chiqishlari, hukumat siyosatining yangi chora tadbirlarining strategic ekspertizasi
3. Iqtisodiy siyosat chora tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlarining ozaro bog'liqligini oshirish
4. Davlat strategik rejalashtirishning ko'p bosqichli tizimini yaratish va uni me'yoriy jihatdanta'minlash.
5. Strategic boshqaruv tizimini axbirotlashtirish raqamlashtirish masalalarini boshqarish
6. Strategic rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqarish va tuzatish.

Prognozlash deganda prognozni ishlab chiqish, ya'ni ma'lum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Prognozlashtirish prognozni

ishlab chiqish jarayoni.

Prognozning axborot bazasi bo'lib hisobotlar (aholining tabiiy va mexanik harakatlarining joriy hisoboti) va maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuqlar (aholini ro'yxatdan o'tkazishlar, maxsus tanlama ijtimoiy - demografik tadqiqotlar, aholining turli ro'yxat va kartotekalari) hisoblanadi.

Prognoz rejalarini bajarilishini aniqlash uchun hizmat qiladi. Ammo prognoz tahlillari reja bajarilish yoki bajarilmasligi mumkin bo'lgan oqibatlarni aniqlash va foydalanish imkonini beradi. Prognozlar ob'ektning xarakteri, mazmun mohiyati va prognoz vaqtiga komplekslikning mashtabi va darajasi, ularning darajasiga qarab farqlanadi.

Oldindan aytib berish va ko'rish - bu turli ma'nolarga ega biri biriga yaqin tushunchalardir. Oldindan aytib berish - bu mantiqiy xulosalar asosida sub'yeqt yoki ob'ektning kelajakdag'i holati haqidagi mulohazalardir. Oldindan ko'ra bilish - bu ob'ektni qonuniy rivojlanishini anglashga asoslangan ob'ektni kelajakdag'i holati haqida mulohazalardir.

Oldindan ko'ra bilishning uch shaklini farqlashadi:

- ilmiy,
- ilmiy bo'lman va
- empirik.

Ilmiy ko'ra bilish tabiat, jamiyat (ob-havo bashoratlari, mamlakat rivojlanishining prognoz iva b.) qonuniy rivojlanishining ilmiy metodlar asosida qurishga asoslangan ilmiy nazariy natijalar hisoblanadi. Ilmiy bo'lman oldindan ko'rish real bo'lman, o'zaro bog'langan fantastik ko'rish (fol ochish, Nostradamus bashoratlari). Empirik ko'rish insonlarning har kungi tajribalariga asoslanadi (masalan, xalq primetalarini).

Ilmiy oldindan ko'ra bilishning uch shakli mavjud: gipoteza, prognoz va reja plan.

Gepoteza – bu sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki sodir bo'lmaydigan u yoki bu holatni rivojlanishi haqidagi farazlar. Gipoteza darajasida qoida bo'yicha

tadqiq etilayotgan ob'ektni rivojlanishi haqidagi miqdor tavsiflari, umumiy qonuniyatlari beriladi.

Prognoz – bu ob'ektni kelajakdagi holati haqida, unga erishish muddatlari va alternativ yo'llari haqidagi ehtimol ilmiy asoslangan mulohaza tushuniladi. Gepoteza bilan taqqoslaganda u aniqligi yuqori bo'lgan, nafaqat miqdor balki, sifat tavsiflariga ega. **Reja** tadqiq etilayotgan holatni, ob'ektni aniq qism voqelikni ko'ra bilish va oldiga qo'ygan maqsadni aniq qo'yishni nazarda tutadi

Prognoz va reja o'rtasidagi farqlari: 1) reja direktiv xarakterga ega bo'lsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;

2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlab chiqilishini talab etadi.

3) prognoz ko'p variantli, reja esa unday emas.

Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davri boshlanadi. Ko'pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Dastur – bu maqsadlari va vazifalari aniq shakllangan, bajarilish muddati bo'yicha, moliyalashtirish manbalari va aniq bajaruvchilar kelishilgan xujjat hisoblanadi.

Prognostika – bu prognoz ishlab chiqish qonuniyatlari haqidagi ilm. U istalgan tabiat ob'ektini rivojlanishini prognozlash metodlarini qurish tamoyillarini o'rganadi. Uning predmetiga prognoz tuzish tamoyillari va prognozlash metodlarini qurishni ishlab chiqish Bilan bog'liq bo'lган barcha savollar kiradi.


Prognoz kelajakni tafsiflab berish uchun u yoki bu sohadagi sodir bo'ladigan o'zgarishlardan oldinroq yuradi. Prognoz qilinayotgan ob'ektni rivojlanish tendentsiyalari qancha vaqtliroq topilsa, boshqaruv shunchalik samaraliroq bo'ladi. Amaliyotda prognozning 3 xil turi bor: qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha), o'rta muddatli (15 yilgacha) va uzoq muddatli (15 yil va undan yuqori).

Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan ilmiy texnika davrida uzoq muddatli prognoz o'z ahamiyatini yo'qotgan. Korxonalarda qisqa muddatli prognozlarni 5 yildan ko'p bo'lмаган давр bilan cheklangan holda ishlab chiqishadi.

Boshqaruv tizimida prognoz quyidagi muhim vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi:

- maqsadlarni aniqlash va prognoz qilinayotgan ob'ektni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- prognoz qilinayotgan ob'ekt rivojlanishi mumkin bo'lgan har bir variantlarni realizatsiyasini ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini baholash;
- prognoz qilinayotgan ob'ekt rivojlanish mumkin bo'lgan variantlarni har birini ta'minlash uchun kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniqlash;
- chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan resurslarni baholash.

Strategik rejalashtirishni amalga oshirishda bajariladigan vazifalar:



Kompaniyani strategik rejalashtirish - aniq natijalarga qaratilgan bir qator qadamlardan iborat. Kompaniyani strategik rejalashtirish yaratish quyidagi holatlarni tishunishga yordam beradi:

1. Asosiy vector: kompaniya qaysi yo'nalishda ishlaydi va qanday natijalarga erishishni istaydi.
2. Vositalarni tanlash. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun rahbarlar qaysi usullardan foydalananadi.
3. Bozordagi o'rni. Hamkorlar va auditoriyalar kompaniyani qanday ko'radi/
4. Jamiyatga qo'yilmalar. Kompaniya jamoyatga qanday foyda keltiradi va insonlar hayotida qanday rol o'ynaydi.
5. Bozor o'zgarishi va moslashish. Bozordagi sezilarli o'zgarishlar biznesga kuchli ta'sir qilganligi bois yangi holatga moslashtirish

Boshqarish tizimida prognozlash va vazifalarining turli-tumanligi prognozni qurishni uslublari va xar xil sistemalarini qo'llanilishini talab etadi. Har bir prognoz kerakli informatsiyaning olinishi, uning ishonchligi asoslangan, baholangan, qayta ishlanishi natijasida paydo bo'ladi. Prognoz ishlab chiqish uchun qanday ma'lumotlarni olish – informatsiya tashuvchining tanloviga, uni olish usullariga, tahlil qilinayotgan ob'ekt rivojlanishini baholovchi maxsus hisob-kitoblarga bog'liq.

Boshqaruvda prognoz quyidagi muhim vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi:

- ✓ maqsadlarni aniqlaydi va prognoz qilinayotgan ob'ektning rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi;
- ✓ prognoz qilinayotgan ob'ekt rivojlanishi mumkin bo'lgan har bir variantlar realizatsiyasini ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini baholash;
- ✓ prognoz qilinayotgan ob'ekt rivojlanishi mumkin bo'lgan variantlarni har birini ta'minlash uchun kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniqlash;
- ✓ chora tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan resurslarni baholash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlash jarayoniga asoslanadigan asosiy tamoyillar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

- 1) prognozning ilmiy asoslanganligi (tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olib ilmiy metodlar yordamida ishlab chiqish);
- 2) prognozlashning uzluksizligi (mamlakatda, iqtisodiyotda vaziyatlarning o'zgarishini hisobga olib prognoz doimo to'g'rilanib turishi kerak);
- 3) istiqbol va joriy prognozlashning muvofiqligi (prognozlash o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi, lekin ustivorlik istiqbol prognozlashga beriladi);
- 4) prognolarning kelishilganligi (ishlab chiqilgan prognoz aralash prognozlar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak);
- 5) prognozning ko'p variantliligi, alternativliligi (prognozning bir necha variantlari ishlab chiqilishi, vaziyatlarning o'zgarishi holatlarida boshqa variantlardan foydalanish uchun talab etiladi. Odatda prognozni uch varianti mavjud: optimistik, pessimistik va realistik);

- 6) asosiy omillarni tanlash (prognozlashda hisob-kitoblarga tadqiq etilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillar kiritilgan bo'lishi kerak). Buning dolzarbliji shundaki, iqtisodiy jarayonlarning o'zi murakkab, ko'p omilli va hamma omillarning ta'sirini hisobga olish qiyin);
- 7) prognoz ishlab chiqishning tizimliligi (prognozlash jarayonini bir tomondan bir butun tizim sifatida, ikkinchi tomondan esa alohida mustaqil bo'limlardan tarkib topgan murakkab tizim sifatida qaralishi);
- 8) prognoz bahosi ishonchli va asoslangan bo'lishi kerak;
- 9) prognoz modelining real hayotga, tendentsiyalarga, qonuniyatlarga maksimal yaqin bo'lishi kerak;
- 10) ishlab chiqilgan prognozdan samara uni ishlab chiqish uchun qilingan xarajatlardan yuqori bo'lishi kerak.

Prognozlash tamoyillari prognozlash modellari va turli metodlarini metodologik yagonaligini ta'minlaydi

Strategik rejorashtirish. Rejorashtirish – maqsadga erishish uchun u yoki bu ishni bajarish yoki yaratish uchun metodlarni ishlab chiqishdir. Uzoq muddatli prognozlashtirishni strategik rejorashtirishdan farqi. Strategik rejorashtirish - bu amalga oshirish kerak bo'lган dasturlar va kompleks chora tadbirlarni ishlab chiqish hisoblansa, prognozlashtirish (qisqa va uzoq muddatli) kelajakdagi holat va sharoitlarni oldindan aytib berishga harakat qilishni anglatadi.

Biznesda strategik rejorashtirishni belgilari:

- 1.Aniq maqsadlarga erishishga yo'naltiradi.
- 2.Bajarilgan ishlarni al'ternativ yo'llari o'rganiladi va zarur bo'lган resurslarni baholaydi.
- 3.Qilingan ishlarni o'lhash uchun nazorat ko'rsatkichini ta'minlaydi.
- 4.Rejorashtirishni boshlang'ich jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash raqobatda ustunlikni beradi.

Strategik rejorashtirishning mohiyati mamlakat (tarmoq, davlat, korxona) asosiy faoliyat yo'nalishini shakllantirishga va rejorashtirilayotgan davrga faoliyatining istalgan natijani aniqlovchi ko'rsatkichlarini rajorashtirishdan iborat. Strategik